



BAHOUDDIN NAQSHBAND HAZRATLARINING TARJIMAI HOLI VA TASAVVUFIY QARASHLARI

Aminjonov Asadullojon Qudratillo o'g'li

“Hadis ilmi maktabi” o'qituvchisi

Annotatsiya

Bahouddin Naqshband tasavvufdagi ilgarilari amalda bo'lgan qattqlikni bir qadar yumshatdi, mo'tadillashtirdi, kundalik turmushga mosladi. Uningcha, Allohga intilish ko'ngil bilan amalga oshishi kerak. Qo'l esa ish-mehnat bilan band bo'laversin. Bahouddin Naqshbandning tarkidunyochilik qilmay ham Allohga yetishish mumkinligi haqidagi g'oyasi musulmon olamida tasavvufning keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini ta'minladi.

Kalit so'zlari: Bahouddin Naqshband, tasavvuf, tarix, Dil ba yoru, dast ba kor.

Ma'lumki, X asrdayoq Markaziy Osiyoda tasavvuf bo'yicha ayrim risolalar yozilgan va ular tasavvufning mintaqada ommalashuviga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Bular Hakim Termiziyning (vaf. 908) “Kitob xatm al-vilaya” va Muhammad ibn Ibrohim Buxoriy Kalobodiyning (vaf. 995) “Kitob at-tarruf li mazhabit-tasavvuf” nomli asarlari bo'lib, ular tasavvufning so'nggi rivojiga g'oyaviy manba bo'ldi. Markaziy Osiyoda tasavvufning tarqalishini ikki so'fiy: Abdul Hasan Ali al-Xaraqoniy (vaf. 1034) va Abu Ali al-Farmoziy (vaf. 1084) nomlari bilan bog'lash o'rinli.

Abu Ali al-Farmoziyning ikki shogirdi Abu Ahmad al-G'azzoliy (vaf. 1126) va Yusuf Hamadoniy irfoniy izchillikni davom ettirdilar. Yusuf Hamadoniy ta'limotidan ikki tasavvuf maktabi – Yassaviy va Xojagon tariqatlari kelib chiqdi. Yassaviya tariqati Ahmad Yassaviy, Xojagon tariqati esa, Abduxoliq G'ijduvoniy nomlari bilan bog'liq¹.

¹ Muminov I.M. Filosofskiy vzglyad Mirzy Bedilya (Mirzo Bedilning falsafiy qarashlari). –T.: Fan, 1957. –S.14.



Tasavvuf tarixida Bahouddin Naqshband (asl ismi Muhammad ibn Muhammad Bahouddin an-Naqshband al-Buxoriy, xalq orasida Bahouddin yoki Xoja Bahouddin, Balogardon yoki Shohi Naqshband nomlari bilan ham mashhur) (1318-Buxoro viloyati, hozirgi Kogon tumani – 1389-yil) muhim o‘rin tutadi. U mashhur avliyo, naqshbandiya tariqatining asoschisi hamdir. Xoja tug‘ilgan qishloq Qasri Hinduvon (keyinchalik Bahouddin Naqshband sharafiga Qasri Orifon) deb atalgan. Uning oilasi va farzandlari to‘g‘risida ma’lumotlar yo‘q.

Bahouddin Naqshband islom olamida Bahouddin Balogardon, Hazrat Bahouddin, Shohi Naqshband, Xoja Bahouddin, Imomi Rabboniy, Hojai Buzrug va Hoja ul Haq va din kabi sharaflilar bilan mashhur bo‘lgan. Manbalarda Bahouddin Naqshbandning ismi-sharifi turlicha nomlar bilan zikr etiladi. Asoslisi "Bahouddin Muhammad ibn Burhoniddin Muhammad al-Buxoriy"²dir.

Sayyid Muhammad Bahouddin Naqshband hijriy 718-yil mezon oyida (bu milodiy 1318-yil avgust-sentyabr oylariga to‘g‘ri keladi) Buxorodan 12 chaqirim naridagi Qasri Hinduvon qishlog‘ida kosib oilasida dunyoga keladi. Bahouddin u kishining faxriy nomlari bo‘lib, ma’nosi dinning nuri, dinga ravshanlik beruvchi demakdir. Xojaning “Naqshband” kuniyasi esa arabcha “naqsh”, forsha “band” so‘zlarining birikmasidan yasalgan bo‘lib, “naqsh soluvchi, naqsh bog‘lovchi” degan ma’nolarni bildiradi. Bahouddin Naqshband Saloh ibn Muborak al-Buxoriyning “Anis ut-Tolibin”³ nomli qo‘lyozmasi, shuningdek, Muhammad Boqirning “Maqomoti Bahouddin Naqshband”⁴ asariga ko‘ra, ham “Silsilai zahab”, ham “Silsilai nasab” 17 yoki 18 avlod orqali Muhammad payg‘ambarimizga bog‘lanadi.

Bahouddinning Qusam Shayx xizmatida 3 oy, Xalil Ota xizmatida 12 yil⁵, Orif Degaroniy xizmatida 7 yil bo‘lganligi manbalarda qayd etilgan.

² Abul Muxsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomati Hoja Bahouddin Naqshband. –T.: Yozuvchi, 1993.-B. 19.

³ Boboxonov Sh.Z., Mansur A. Naqshbandiya tariqatiga oid qo‘lyozmalar fihrisi.- T.: Fan, 1993.-B. 6-7.

⁴ Abul Muxsin Muammad Boqir ibn Muhammad Ali. Yuqoridagi asar. -B. 84.

⁵ Faxruddin Ali Safiy. Rashahot (Obi hayot tomchilari).- T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003.-B.79.



Shamsiddin Somiy va Shayx Muhammad Xishom Qabboniy qaydiga tayanadigan bo‘lsak, hozirda Bahouddin Naqshbandga quyidagi beshta: “Hayotnoma” yoki “Arbobi urfon”; “Dalil ul-oshiqin”; “Al-avrod al Naqshbandiya”; “Xadiyyat us-solikin va tuhfat ut-tolibin”; “Tanbeh al-g‘ofilin” asarlari nisbat berilmoqda.

Bu kishi karomat sohibi va olimi rabboniy, Qur’oni Karim va payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning buyurganlarini xalqqa yetkazib, shariatimiz rivojiga muhim hissa qo‘shgan valiyulloh hisoblanadilar.

Bahouddin Naqshband hazratlari nasablari haqida “Tuhfatul ansob” kitobida shunday ma’lumot berilgan: Hazrat Bahoul haq vad-din Sayyid Muhammad ibn Sayyid Muhammad Jaloliddin Buxoriy ibn Sayyid Burhoniddin Xoldor ibn Sayyid Abdulloh ibn Sayyid Zaynulobidin ibn Sayyid Sha’bon ibn Sayyid Burhon ibn Sayyid Mahmud Rumiyy ibn Sayyid Is’hoq ibn Sayyid Taqi ibn Sayyid Mahmud Jome ibn Sayyid Ali Akbar ibn Hazrat Imom Ali Taqi ibn Imom Muhammad Taqi ibn Hazrat Imom Ali Muso ar Rizo ibn Zaynulobidin ibn Husayn ibn Ali ibn Abu Tolib.

Bahouddin Naqshband hazratlari ona tomonidan Siddiqiydir, ya’ni nasablari Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuga borib taqaladi⁶. Bu zotning otalari to‘quvchi hamda o‘yma naqsh soluvchi (naqshband) bo‘lgan. Bahouddin Naqshband hazratlarining kamolotga yetishishlarida bobosini alohida xizmati bor. U so‘fiylar bilan yaqin aloqada bo‘lgan. Shu sababli nabirasida ilohiyotga katta qiziqish o‘yg‘otdi.

Bahouddin Naqshband ilm istab, Yassaviya tariqati shayxlarining mashhur vakillaridan biri bo‘lmish Qusam shayx oldiga boradi. Uch oy undan ta’lim olib, Buxoroga qaytadi va umri oxirigacha shu yerda yashaydi. Ikki marta haj qilgan. g‘aribona hayot kechirgan, faqat o‘z mehnati – kimxobga naqsh solish bilan kun ko‘rgan. o‘z ta’limotini yaratishda Yusuf hamadoniy va Abduholiq g‘ijduvoniyy

⁶ S.S.Buxoriy. “Dilda yor”. G‘.G‘ulom nashriyoti.1993-y.4-bet



nazariyalariga asoslangan. Ta'limotining asosida "Dil ba yor-u, dast bakor" (Ko'ngil yorda, qo'l ishda) degan shior yotadi.

Bahouddin Naqshband tasavvufdagi ilgarilari amalda bo'lgan qattqlikni bir qadar yumshatdi, mo'tadillashtirdi, kundalik turmushga mosladi. Uningcha, Allohga intilish ko'ngil bilan amalga oshishi kerak. Qo'l esa ish-mehnat bilan band bo'laversin. Bahouddin Naqshbandning tarkidunyochilik qilmay ham Allohga yetishish mumkinligi haqidagi g'oyasi musulmon olamida tasavvufning keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini ta'minladi. Bahouddin Naqshband vafotidan keyin Naqshbandiya tariqati keng yoyildi. XV asrda Xoja Ahror Ubaydulloh Valiy bu tariqatning eng yirik rahnamosi sifatida maydonga chiqdi. Jomiy, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi shoirlar ham Naqshbandiya tariqatida edilar. Ular ijodida Naqshbandiya g'oyalari keng va atroflicha targ'ib etildi

Amir Kulol, Muhammad Boboyi Samosiy o'gitiga asosan bor bilimlarini Bahouddin Naqshbandga berganidan so'ng ijozat berib, unga boshqalardan ta'lim olishini aytadi. Shundan so'ng, Naqshband yetti yil davomida orif Degaroniydan ta'lim olgan. Hazrat Amir Kulol hijriy 772, milodiy 1370-yili vafot etdi.

Xojagon tariqatidagilar Tangrini haq deb, unga yetishish, uni bilish va tanishni haqiqatga erishish, deb bilganlar. Xojagon tasavvufiy ta'limotining falsafiy asosi "vaxdati-vujud" bo'lib, borliq – yagona asl zotning tajalliysi, nuri deb qaraladi. Ular ta'limoti bo'yicha, butun borliq Haqning jamol va jalolining tajalliysi va ko'rinishlaridir. "Qalb to'la soflikni topganidan so'ng, - deb yozadi Xoja Ali Romitoni, - unda vahdoniyatning nuri porlar, u tajalliy ahli bo'lur"⁷. Turk olimi Usmon Turorning fikricha, "vahdati vujud" aqliy dalil bilan emas, qalbiy mushohada, zavq va hol bilan erishiladigan bir "irfon" bo'lib, aqliy nazariy emas"⁸.

Abdulxoliq G'ijduvoniylarni ilmni har tomonlama va chuqur o'rganishga, har qanday

⁷ Romitoni Xoja Ali. Risolai Hazrat Azizon. 1327-y. –B.25.

⁸ Usmon Turor. Tasavvuf tarixi. –T.: Istiqlol, 1999. –B.155.



amalni ixlos bilan ado etishga da'vat qiladi. "Islom asosi uchun etgaysiz sidqi ixlos bilan eting" – deydi o'gitlarida G'ijduvoniy. Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G'ijduvoniy va Bahouddin Naqshband so'fiylar amal qilishi lozim bo'lgan 11 ta xulq-odob qoidalarini ishlab chiqqanlar. Ana o'sha xulq-odob qoidalari "rashha" deb ataladi.

Naqshbandiya tariqatining asosiy diniy-falsafiy g'oyalari quyidagi uch manbaga tayanadi:

a) tariqatning o'n bir rashhasi (qoida). Ulardan to'rt mashhur kalima (chahor kalima): "Hush dar dam", "Hilvat dar anjuman", "Nazar bar qadam", "Safar dar vatan" asosiy qoidalardir;

b) tariqatning asosiy shiori bo'lgan "Dil ba yoru, dast ba kor";

v) naqshbandiyona hikmatlar, ya'ni yuksak insonparvarlikni, halolu poklikni yoritishga qaratilgan Naqshband "virdlari", ya'ni iltijo, nido va o'gitlari tashkil etadi.

Bahouddin Naqshband dunyoqarashini ifoda etuvchi yana bir omil, bu uning serma'no irfoniy hikmatlari, o'git, iboralaridir. Ulardan: -"Agar do'st aybiga boqsak, do'stsiz qolamiz, hech kim dunyoda beayb emas"; -"Sabr va chidamda nog'ora kabi bo'lmoq lozimki, u qanchalik shapaloq yemasin, biroq o'z odatiga xilof ovoz chiqarmaydi"; -"Shamga o'xshagin, toki hammaga ravshanlik bag'ishla, o'zing esa qorong'ida bo'l" kabi bir qator naqshbandiyona o'gitlar tadqiqotlarda sharhlanadi.